



UDK:94.5.

Intizom XUJAMATOV,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: intizomofficial@gmail.com

O'zMU dotsenti, tarix fanlari doktori, DSc O. Radjabov taqrizi asosida

ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF FARMS IN THE KHOREZM REGION

Annotation

This article reveals the beginning of new reforms in the agricultural sector in the Khorezm region during the years of independence, including the formation and development processes of farms.

Key words: Agrarian sector, cooperative farms, farms, agriculture, peasant farms, reform.

СОЗДАНИЕ И РАЗВИТИЕ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данном государстве раскрывается начало новых реформ в аграрном секторе Хорезмской области в годы независимости, в том числе процессы становления и развития фермерских хозяйств.

Ключевые слова: Аграрная отрасль, кооперативные хозяйства, фермы, сельское хозяйство, крестьянские хозяйства, реформа.

XORAZM VILOYATIDA FERMER XO'JALIKLARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida agrar sohada yangi mazmunga ega bo'lgan islohotlar boshlanganligi, jumladan fermer xo'jaliklarining tashkil topishi va rivojlanish jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Agrar soha, qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, islohot.

Kirish. Mustaqillikdan keyin mamlakatda, davlat iqtisodiyotiga katta va samarali foida ko'rsatgan siyosati bu agrar sohada olib borilgan islohotlar hisoblanadi. Mamlakatning qishloq xo'jaligida, dehqon(fermer) xo'jaliklarining vujudga kelishi, ularning kengayib va rivojlanib borishi albatta davlat iqtisodiyotida agrar sohaning yuksalishiga misol qilib aytishimiz mumkin.

So'ngi yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo'jaligida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligida ilm-fan, texnika yutuqlarini, yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallik bilan rivojlanmoqda. Cheklangan suv va yer resurslaridan, mehnat va kapital resurslaridan foydalanishda yuksak samaradorlikga erishmoqda

Rivojlangan mamlakatlar hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning tarixi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti dastlab agrar sohadan keyinchalik sanoatlashish darajasiga ko'tarilgan. Yurtimiz ham hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida o'z e'tiborni aholini sifatli oziq-ovqat va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uzoq vaqt davomida sovet hukumati O'zbekistonni qishloq xo'jaligida asosan paxta bazasiga aylantirishga harakat qilib keldi. Bu vazifa katta mashaqqat va yo'qotishlar evaziga erishildi. Sovet ittifoqi mehnat taqsimotiga ko'ra O'zbekiston SSR asosan paxta yetishtirishga va bir qator sanoat tarmoqlari esa paxtani qayta ishlashga ixtisoslashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolada qiyosiy tahlil, ilmiylik, tarixiylik, uzviylik kabi metodlarga tayanib yozilgan.

Tahlil va natijalar. 1991-yil 31-avgustda Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng davlat iqtisodiyoti ham xsusiy mulkchilik shakliga o'tkazila boshlandi. Bu jarayon salkam bir asr hukm surgan sotsialistik tuzum ostida yashagan va iqtisodiy mulkchilik shakllaridan uzoqda bo'lgan jamiyatimizni yangi bir bosqichga olib

chiqishi zarurligini ko'rsatdi. Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda davlat rahbariyati tomonidan xsusiy mulkchilik shart-sharoitlarini yaratish uchun dastlab agrar sohada islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonlar iqtisodiy shart-sharoitlarni jahon standartlariga moslashtirish uchun albatta, katta kuch sarf-xarajat va vaqtni talab qildi.

Agrar sohada xo'jalik yuritishning yangi yo'li bo'lgan Fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1991 yil 29 noyabrda PF-295-son Farmoni, 1991 yil 30 dekabrda esa Vazirlar Mahkamasining 315-sonli «Respublikada dehqon (Fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqidagi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror va farmonlarga asosan "O'zagroprombank"ga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga yordam fondidan ozuqa va qurilish materiallari sotib olish uchun kredit berish hamda tuman, qishloq kengashlari, shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bu mablag'lardan maqsadli foydalanishlari[1] uchun imkoniyat yaratib berilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning o'rni yuqori, shuning uchun ularga ma'lum bir yordam ko'rsatildi, qo'llab-quvvatlandi va yer maydonlari ajratildi. Ularni yem-hashak, yosh qoramollar, ko'chatlar bilan ta'minlash ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi[2].

Qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilishning dastlabki davrida qo'lga kiritilgan eng muhim natija – shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlardan aholiga joy ajratib berishdan iborat bo'ldi. Biroq, barcha sohalaridagi singari Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida ham kamchiliklar bo'lgan. 1991 yilning o'zida 248 ta fermer(dehqon) xo'jaligi tashkil etilgan va ularga 648 gektar yer, 2679 bosh yirik shoxli qoramol, 1294 ta sigir berilgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari qishloqda yangi huquqiy munosabatlarni joriy etish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, fermerlik va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish imkoniyatini yaratdi[4]. Qisqa vaqt ichida Respublikada 1066 ta sovxoz xo'jaligi tugatilib, ular negizida jamoa xo'jaliklari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 24 noyabrda "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan Xorazm viloyatida qishloq aholisiga 0,06 ga yer maydonlari qo'shimcha tomorqa va 0,04 ga yerlar uy-joy qurish uchun kim oshdi savdosi asosida ajratiladigan bo'ldi[5]. Natijada, qishloq aholisining soni o'sib borayotgan va uy-joy qurishga muhtoj hamda yerdan olinadigan qo'shimcha daromad hisobiga o'z oilaviy budjetini biroz bo'lsada mustahkamlashga erishgan mehnatkashlarning dehqonchilik ishlariga e'tibori ortdi.

Respublikada agrar sohada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida mulk haqiqiy egasi qo'lga o'tib, mo'l hosil yetishtirish uchun qulay sharoitlar yaratila boshlandi. Bu imkoniyatlar tufayli Respublikada fermer xo'jaliklari soni yil sayin ortib bordi. 1992 yilda ularning soni 10 mingta bo'lgan bo'lsa, 1994 yilda 13 mingni, 1996 yil 1 yanvarida 21 mingtani tashkil etgan.[6]. 1996 yil Xorazm viloyatdagi 40 dan ziyod davlat xo'jaliklari mulkchilikning nodavlat shakllariga va 110 ta chorvachilik fermalari hissadorlik jamiyatlariga aylantirilganligi, 878 dehqon (fermer) xo'jaliklari faoliyat ko'rsatayotganligini qayd etildi. Tarmoqda mulk shakllari o'zgarib, butunlay yangi shirkat va dehqon-fermer xo'jaliklari paydo bo'ldi. Muttasil zarar ko'rib ishlayotgan, istiqbolsiz 13 ta xo'jalik tugatilib, ularning negizida 834 fermer xo'jaliklari barpo etildi. Sanasiyaga tushgan 10 ta xo'jalik esa ikki yilda qaddini tiklab, iqtisodiy baquvvat xo'jaliklar qatoridan o'rin oldi.

1997 yil 1 yanvar holatiga viloyatda 971 ta dehqon (fermer) xo'jaliklari mavjud bo'lib, ishlovchilar soni 1479 ta edi. 1996 yilda fermer xo'jaliklari jami 6 ming gektar maydonda dehqonchilik qildilar. Shu maydonning 0,5 ming gektariga bug'doy, 1,9 ming gektariga sholi, 1,1 gektariga paxta, 0,2 ming gektariga kaptoshka, sabzavot, poliz va 2,2 ming gektariga ozuqa ekinlari ekilgan. Bu davrda viloyat bo'yicha dehqonchilikda 220 ta va chorvachilikda 658 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1997 yilning 1 yanvar holatiga dehqonchilikda 316 ta va chorvachilikda 650 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan[7]. Dehqon (fermer) xo'jaliklarining ish unumdorligida, ularning dehqonchilik va chorvachilik sohasida jamoa yoki davlat xo'jaliklariga qaraganda yuqori natijaga ega bo'lganligini kuzatish mumkin.

1998 yil 30 apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida" qabul qilingan qonunida shu paytgacha dehqon xo'jaligi, dehqon (fermer) xo'jaligi deb nomlanib kelinayotgan harakat, endi fermerlik harakati deb ataladi.

Fermerlar tanlov asosida yer uchastkalarini 10 yildan kam bo'lmagan muddatda, 50 yilgacha shartnoma asosida ijaraga oladi. Fermerlarga jamoa xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, yer uchastkalari zaxira yerlari, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qo'shloq xo'jaligi yerlaridan va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan beriladi. Oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, suv fondi yerlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yerlari fermer xo'jaliklariga berilmaydi.

Qonunga ko'ra fermer xo'jaliklarini tashkil etish shartlari aniq aytib o'tilgan. Yani, chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi tashkil etilishi uchun, kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lishi kerak edi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng minimum o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon,

Namangan va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda eng kamida 0,3 gektarni, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlardagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami g'allachilik va paxtachilik uchun eng kamida 10 gektarni, sabzavotchilik, uzumchilik, bog'dorchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 13 maydagi "1999-2001 yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi to'g'risida"gi 243-sonli Qaroriga, muvofiq zarar ko'rib ishlayotgan jamoa xo'jaliklari o'rnida, Xorazm viloyatida 9 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta va Sirdaryo viloyatida 3 ta jamoa xo'jaligi o'rnida 476 ta fermer xo'jaligi tashkil etildi[8]. Natijada, 2000 yilning o'zida Respublikada 11,7 mingta fermer xo'jaligi tashkil etildigan[9].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "1999-2001 yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi to'g'risida"gi qaroriga Xorazm viloyatini 1999-2001 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun 42,2 mlrd. so'm va 247,9 mln. AQSh dollari ajratilgan. Shundan 9,1 mlrd. so'mi 1999 yilda, 16,5 mlrd. so'mi 2000 yilda, 16,1 mlrd. so'mi 2001 yilda va 306 mln. so'mi 2002-2003 yillarda sarflanishi ko'zda tutilgan edi[10]. Fermer xo'jaliklari iqtisodiy islohotlar natijasida faoliyatlarini ancha kuchaytirdilar. Davlat tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va madaddan ruhlangan fermerlar qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida samarali faoliyat olib bordilar. Jumladan, Xorazm viloyati g'allakorlari 2001 yilda davlatga 40 ming tonnadan ziyod g'alla topshirib, shartnoma majburiyatlarini bajardilar. Davlatga 1850 tonna pilla sotilib, topshiriq to'la ado etildi. Paxtakorlar ham suv tanqisligi oqibatida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib, barakali hosil yetishtirishga muvaffaq bo'ldilar.

2004 yilda 269 ta fermer xo'jaliklari tomonidan bug'doy bo'yicha shartnomalar 689 tonnaga, 5 ta shirkat xo'jaligi tomonidan 139 tonnaga bajarilmagan. Fermer xo'jaliklarining 3 yillik faoliyati tahlil etilganda, ekin yeridan samarasiz foydalanilgani uchun Bog'ot, Xazorasp, Qo'shko'pir, Gurlan tumanlarida shartnoma shartlarini bajarmagan 18 ta fermer xo'jaligini (197,2 gektar) tugatilgan[11].

2004 yil aprelda Xorazm viloyat hokimligi qishloq xo'jaligini ilmiy asoslarda rivojlantirish, tarmoqqa ilg'or tajriba, fan yutuqlari, texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, rahbarlar malakasini oshirish maqsadida hokimiyat qoshida ilmiy-amaliy kengash tuzib, uning ish rejasi tasdiqladi. Natijada, g'alla va paxtachilikda hosildorlikni 20-25 foizga o'sish bilan birga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda 15-20 foiz kam harajat qilingan[12].

2004-2005 yillarda moliya va ta'minot sohalarini nisbatan samarali tashkil etish natijasida g'alla va paxtadan yuqori hosil olindi. 2002 yilda jami yetishtirilgan paxta xom ashyosining 29 foizi, g'allaning 27 foizi fermerlar hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006 yilga kelib paxta xom ashyosining 85 foizidan ortig'i hamda g'allaning 81 foizga yaqini fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan[13]. Viloyat tumanlarida fermer xo'jaliklariga servis xizmati ko'rsatuvchi shaxobcha va minibanklar tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi PF-3077-sonli, 2009 yildagi PF-3287-sonli, 2010 yildagi PF-3512-sonli fermer xo'jaliklari ixtiyoridagi yer uchastkalari hajmlarini maqbullashtirish bo'yicha farmoyishlariga binoan

so'nggi yillarda fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari hajmini yiriklashtirish natijasida ularning faoliyatlarida har tomonlama yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. 2009 yilga maqbullashtirishdan oldin fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 11,4 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilda 44,1 gektardan to'g'ri keldi. Jumladan, paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 90,4 gektarni tashkil qilgan. Bu esa fermer xo'jaliklarini kelgusida yanada rivojlantirishga, yangi texnikalar sotib olishga imkoniyat yaratadi. 2011 yilga kelib, Xorazm viloyatida 4681 fermer xo'jaligi foyiat ko'rsatgan[14]. 2011 yilda viloyatda paxtachilikda 8 ta tuman va 730 dan ortiq fermer xo'jaliklari shartnomaviy majburiyatlarni bajarmagan va ular tomonidan 42 ming tonnadan ortiq paxta xom ashyosi yetkazib berilmagan. G'allachilikda esa 321 ta fermer xo'jaliklari tomonidan shartnomaga nisbatan 6,8 ming tonna don yetkazib berilmagan[15].

Agar 1990 yillarning boshida O'zbekistonda 6577 ta Fermer xo'jaligi tashkil etilgan bo'lsa, Ushbu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 878 tani (1995 y) tashkil qildi. 2000 yili viloyat Fermer xo'jaliklarini soni 2759 taga, 2005 yili 14479 taga, 2006 yil 17888 tani, 2008 yil yanvar holati bo'yicha 19014 ta Fermer xo'jaliklari birlashtirilgan yermaydonlari holati ham tez ko'payib bordi.

Fermer xo'jaliklari soni tez ortib borishi bilan birga, viloyatning tumanlar bo'yicha ham turlicha taqsimlangan. Bunga avvalo, tumanlar hududining katta kichikligi, asosan sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi, suv bilan ta'minlanganligi darajasi kabi omillar ta'sir ko'rsatgan.

Xorazm viloyatida 10 ta qishloq tumanlari bo'lib, ular maydoni bo'yicha turlichadir. Fermer xo'jaliklarini hududiy joylashishiga yerlarning xususiyatlari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari asosan viloyatning Qo'shko'pir, Gurlan, Hazorasp, Shovot, Xonqa, Yangibozor tumanlarida joylashgan. Gag'allachilik yo'nalishida Xonqa, Gurlan, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlaridagi fermer xo'jaliklari etakchilik qilgan. Xorazm viloyatning maydoni eng kichik tumanlari Yangiariq, Yangibozor tumanlarida esa fermerlar soni ham kamligi bilan ko'zga tashlanadi.

Davlat statistika ma'lumoti bo'yicha 2008 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Xorazm viloyatida 19014 ta faoliyat ko'rsatayotgan Fermer xo'jaliklari hisobga olingan.

Xorazm viloyati fermer xo'jaliklari soni dinamikasini tahlil qilishi natijasida shuni ko'rsatadiki, ularning soni 1995 yil 878 tadan, 2008 yilga kelib 19014 taga, ya'ni 21,6 barobarga ko'paydi. Bunday tez o'sish ko'proq 2000 yildan seziladi. Bunga respublikamizda fermerchilikni iqtisodiy islohotlarning bosh yo'nalishi qilib belgilanishi sabab bo'ldi. Chunki, buning natijasida davlat, jamoa va shirkat xo'jaliklari to'la fermer xo'jaliklariga aylantirila boshlandi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги идоравий архиви, ЎЗР ҚСХВ нинг 1992 йилдаги № 1-50 буйруқлари йиғма жилди, 290-варақ.
2. Усмонов С., Додобоев.Ю. Фермер ва деҳқон хўжаликлари. Дарслик, 2-нашр. – Тошкент, 2002. – Б.10.
3. Хоразм вилоят ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд. – 51-варақ.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998 йил май-июнь, №5-6. –Б.10-11.
5. “Хоразм ҳақиқати”, 1994 йил 26 ноябрь.
6. Усмонов С., Додобоев.Ю. Фермер ва деҳқон хўжаликлари. Дарслик, 2-нашр. – Тошкент, 2002. – Б.14.
7. Хоразм вилоят ҳокимияти архиви. 818-фонд, 1-рўйхат, 47-йиғма жилд. 5-варақ.
8. Фармонов Т. Фермер хўжалигини ривожлантириш истиқболлари. – Тошкент:Янги аср авлоди, 2004. – Б.84.
9. ЎЗ ҚСХВ идоравий архиви, 2001 йил ҳужжатлари йиғма жилди.
10. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилоят мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.125.
11. Хоразм вилоят ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 68-йиғма жилд, 78-варақ.
12. ЎЗР ҚХВ идоравий архиви, ЎЗРҚСХВ коллегиясининг 2004 йилдаги 412-сонли баённомаси.
13. Ўзбекистонда фермер хўжаликларини юритиш асослари. – Тошкент, 2007. –Б.10.
14. ЎЗР ҚХВ идоравий архиви, 2012 йил ҳужжатлари йиғма жилди.
15. Хоразм вилоят ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 20-рўйхат, 35-йиғма жилд.–25-варақ.
16. Бобожонов Б., Қахрамонов М. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилоят мустақиллик йилларида. 2-китоб. – Тошкент:Yangi nashr, 2011.– Б.150.

Xorazm viloyati qishloq tumanlari orasida fermer xo'jaliklarining eng ko'p soni Xonqa (2250), Shovot (2186), Gurlan (2184), Hazorasp (2097), Qo'shko'pir (2012), Urganch (1961), Yangiariq (1766), Bog'ot (1613), Xiva (1479), Yangibozor (1465) tumanlariga to'g'ri keldi.

Masalan, Yangiariq tumanida 0,4 ming km2 etgani holda aholisi 86 ming kishiga teng. Aholi zichligi esa 1 km2ga 211,5 kishini tashkil qilgan.

2008 yil 1 yanvar ma'lumotiga 1 holatiga ko'ra Xorazm viloyatidagi Fermer xo'jaliklariga tegishli jami yer maydoni 246019 gektarni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich tumanlar bo'yicha turlicha. Eng ko'p fermer xo'jaligi yerlari Hazorasp tumanida (30509 gektar) Qo'shko'pir tumanida (29921 gektar), Shovot tumanida (28685 gektar), Gurlan (28372 gektar), Yangibozor (24729 gektar), Xonqa (24359 gektar), Urganch (24309 gektar), Bog'ot (20647 gektar), Xiva (18773 gektar), Yangiariq (15707 gektar) tumanlarida joylashgan.

Fermer xo'jaliklarining jami ekin maydonlari 1995 yili 4192 gektardan 2008 yili 246019 gektarga, ya'ni 58,6 martaga ortgan.

Xorazm viloyatining har bir Fermer xo'jaligiga 2008 yili o'rtacha 12,9 ga yermaydoni to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich butun respublika bo'yicha 26,6 ga teng. Jizzah viloyatida u hatto 41,8 ga ni, aksincha Xorazm viloyatida 2005 yilda Fermer xo'jaliklariga 10,1 gektarga, Andijon viloyatida 13,2 gektarni, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida mos holda 13,0 va 13,7 gektarga to'g'ri kelgan.

Viloyatda har bir fermerga to'g'ri keladigan yermaydoni 1995yilda 4,8 gektardan 2008 yilga kelib 12,9 gektarga o'sdi, ya'ni 268,7% ga yetdi. Har bir Fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni viloyat bo'yicha ortib borgani bilan, ko'pchilik tumanlarda aksincha bo'lib qisqarib bormoqda. Buni Yangiariq, Xonqa, Xiva tumanlarda kuzatish mumkin.

Viloyatda fermer xo'jaliklariga har tomonlama yordam berish maqsadida foyiat ko'rsatib kelgan 115 ta suv iste'molchilari, 109 ta yoqilg'i-moylash materiallari, 92 mineral o'g'it tarqatish, 111 muqobil mashina traktor parklari (MMTP) va 178 ta zooveterinariya xizmati ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilgan bo'lib[16], ular tomonidan fermer xo'jaliklariga servis xizmatlari ko'rsatilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytishimiz lozimki, Xorazm viloyatida mustaqillikdan keyin olib borilgan agrar sohadagi islohotlar davlat va aholining iqtisodiga sezilarli tasir qildi. Aholi orasida fermerchilikka, tadbirkorlikka qiziqish yildan yilga ortib bordi, chunki xsusiy mulkchilikda foidaning ortib borishi natijasida, fermerlarning moliyaviy imkoniyatlari yanada ortib bordi. Albatta bu islohotlar jamiyatda yangi mulkdorlar qatlamining ko'payishiga va davlat iqtisodiyotining yuksalishiga xizmat qildi.